

LAZGI RAQSI: TARIXIY GENEZISI VA BADIY-ESTETIK TIZIMI

Shavkat Ataxanov

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
o'qituvchisi O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20812383>

Annotatsiya. Lazgi raqsi o'zbek xalqining madaniy merosida alohida o'rin tutadigan noyob san'at turidir. Uning ildizlari qadimiy marosim va urf-odatlariga borib taqaladi, Xorazm vohasida esa professional maktab va sahnaviy talqin shakllangan. Raqsning badiiy-estetik xususiyatlari, plastika va mimika, ritmik murakkablik va musiqiy uyg'unlik orqali ifodalanadi.

Kalit so'zlar: raqs, lazgi, san'at, Xorazm, xalq, marosim, qadriyat, musiqa, sahna, madaniyat, plastika, mimika, ritmika.

Аннотация. Лазги – уникальный танец, который занимает особое место в культурном наследии узбекского народа. Его корни уходят в древние ритуалы и обычаи, а в Хорезмской области сформировалась профессиональная школа и сценические интерпретации. Танец отличается художественно-эстетическими особенностями: тонкой пластикой рук, пальцев и плеч, выразительной мимикой, сложным ритмом и музыкальной синхронизацией.

Ключевые слова: танец, Лазги, искусство, Хорезм, народ, ритуал, ценность, музыка, сцена, культура, пластика, мимика, ритмика.

Annotatsion. Lazgi is a unique dance form that occupies a significant place in the cultural heritage of the Uzbek people. Its roots trace back to ancient rituals and customs, while a professional school and stage interpretations developed in the Khorezm region. The dance is characterized by its artistic and aesthetic features, including delicate hand, finger, and shoulder movements, expressive facial gestures, complex rhythm, and musical synchronization.

Keywords: dance, Lazgi, art, Khorezm, people, ritual, value, music, stage, culture, body movement, facial expression, rhythm.

O'zbek xalqining ko'p asrlik madaniy merosi tarkibida raqs san'ati alohida va beqiyos o'rin tutadi. Bu san'at turi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, marosimlari hamda estetik didi bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, asrlar davomida sayqallanib kelgan. Ayniqsa, Xorazm vohasida shakllangan Lazgi raqsi o'zining qadimiy ildizlari, teran falsafiy mazmuni va yuksak ijro madaniyati bilan alohida ajralib turadi.

Lazgi – bu shunchaki harakatlar majmui emas, balki insonning ichki kechinmalari, ruhiy jo'shqinligi va hayotiy energiyasini ifoda etuvchi badiiy-falsafiy tizimdir. Unda tabiat hodisalari, hayot aylanishi, quvonch va iztirob, kuch va latofat singari qarama-qarshi, ammo uyg'un tushunchalar mujassam. Raqs harakatlarining bosqichma-bosqich kuchayib borishi inson qalbidagi tuyg'ularning uyg'onishi va yuksalishini ramziy tarzda ifodalaydi. Lazgi nafaqat sahnaviy san'at namunasi, balki xalqning dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, estetik qarashlari hamda tarixiy xotirasini o'zida mujassam etgan murakkab madaniy hodisadir. U orqali ajdodlarning hayot falsafasi, tabiatga munosabati va go'zallik haqidagi tasavvurlari avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. Shu bois Lazgi milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni ilmiy jihatdan o'rganishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

2021-yilda "Xorazm lazgisi"ning UNESCO Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilishi ushbu san'at turining nafaqat milliy, balki umuminsoniy

qadriyat sifatida e'tirof etilganini anglatadi. Mazkur e'tirof Lazgining tarixiy ildizlari, betakror ijro uslubi, chuqur ramziy mazmuni hamda avloddan avlodga og'zaki va amaliy an'ana orqali yetib kelganligini xalqaro miqyosda tasdiqladi. UNESCO ro'yxatiga kiritilish jarayoni ma'lum ilmiy asoslar, dalillar va madaniy ekspertiza talab qiladi. Shu bois "Xorazm lazgisi"ning ushbu maqomga sazovor bo'lishi uning tarixiy manbalarga tayanganligi, hududiy maktab sifatida shakllanganligi va bugungi kunda ham faol yashab kelayotgan an'ana ekanini ko'rsatadi. Bu voqea o'z navbatida O'zbekistonning boy nomoddiy merosini dunyo hamjamiyatiga kengroq tanitish imkonini yaratdi.

Mazkur e'tirof ilmiy jamoatchilik oldiga ham muhim vazifalarni qo'ydi. Endilikda Lazgini chuqur o'rganish, uning genezisi, kompozitsion tuzilishi, musiqiy asoslari, semantik qatlamlari va ijro maktablarini tizimli ravishda tadqiq etish zarurati yanada ortdi. Ilmiy izlanishlar orqali Lazgining tarixiy evolyutsiyasi, hududiy variantlari va sahnaviy talqinlari o'rtasidagi farqlar aniqlanib, nazariy asoslari mustahkamlanishi lozim. Shuningdek, UNESCO maqomi Lazgini asrab-avaylash, yosh avlodga o'rgatish va uning autentik xususiyatlarini saqlab qolish mas'uliyatini ham kuchaytirdi. Chunki globalizatsiya jarayonida ko'plab an'anaviy san'at turlari o'zining asl shaklini yo'qotish xavfi ostida qolmoqda. Shu jihatdan "Xorazm lazgisi"ning xalqaro himoya ostiga olinishi uni kelajak avlodlarga yetkazish, ilmiy jihatdan hujjatlashtirish va ta'lim tizimiga chuqurroq integratsiya qilish uchun mustahkam asos yaratdi¹.

Demak, 2021-yilgi ushbu tarixiy voqea Lazgining madaniy meros sifatidagi maqomini mustahkamlabgina qolmay, balki uning ilmiy, amaliy va nazariy o'rganilishiga yangi bosqich boshlab berdi. Mazkur maqolada Lazgining tarixiy ildizlari, uning ibtidoiy marosim va qadimiy an'analar bilan bog'liq genezisi, turli davrlarda bosib o'tgan shakllanish va taraqqiyot bosqichlari atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, Xorazm madaniy muhitida yuzaga kelgan ushbu raqsning hududiy xususiyatlari, ijtimoiy-maishiy hayot bilan bog'liqligi hamda tarixiy jarayonlar ta'sirida takomillashuvi ilmiy asosda yoritiladi.

Lazgi raqsining ildizlari ibtidoiy jamiyat davriga borib taqaladi va u insoniyatning dastlabki estetik ifoda shakllari bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimgi davrlarda inson o'zining quvonch, qo'rquv, hayrat va e'tiqod kabi tuyg'ularini aynan harakat orqali ifoda etgan. Shu ma'noda, Lazgi inson va tabiat o'rtasidagi uzviy aloqaning badiiy in'ikosidir. Tadqiqotchilar uning paydo bo'lishini insonning tabiat bilan uyg'un yashash jarayoni, olovga sig'inish, quyosh va hosildorlik kultlari, shuningdek, mavsumiy marosimlar bilan bog'laydilar. Qadim zamonlarda olov hayot, yorug'lik va poklanish timsoli sifatida ulug'langan. Lazgi harakatlaridagi titroq, tebranish va asta-sekin kuchayib boruvchi dinamika olovning lovullashi va alanganlanishini eslatadi. Bu jihat raqsning ramziy qatlamini boyitadi. Shuningdek, dastlabki elementlarda quyosh nuri taralishi, qushlarning erkin parvozi, yovvoyi hayvonlarning chaqqon va keskin harakatlari tasviriy ifoda topgan. Harakatlarning tabiatdagi ritmik jarayonlarga o'xshashligi Lazgining kosmik va tabiiy uyg'unlik g'oyasiga asoslanganini ko'rsatadi.

Ba'zi ilmiy qarashlarga ko'ra, Lazgi ibtidoiy jamoalarda jamoaviy marosim raqsi sifatida ijro etilgan bo'lishi mumkin. U orqali jamiyat a'zolari o'zaro birdamlikni mustahkamlagan, hosildorlik va baraka tilagan, turli sinov va qiyinchiliklarga qarshi ruhiy tayyorgarlik ko'rgan. Raqsning jamoaviylik xususiyati keyinchalik individual ijro shakliga o'tgan bo'lsa-da, uning

¹ Djumabaeva M. The legend of lazgi and its history // Modern science and research. 2024 №3 (11). – P. 175-177

ichki energiyasi va ruhiy ko'tarinkiligi saqlanib qolgan. Lazgi harakatlarining asta-sekin kuchayib borishi hayotiy energiya, tiriklik va ruhiy uyg'onish ramzi sifatida talqin qilinadi. Raqs odatda mayin, ichki tebranishdan boshlanib, bosqichma-bosqich jo'shqin va shiddatli tus oladi. Bu jarayon inson qalbidagi tuyg'ularning uyg'onishi, kuch to'plashi va erkinlik sari intilishi bilan qiyoslanadi. Aynan shu dramatik o'sish tamoyili Lazgini boshqa hududiy raqs turlaridan ajratib turadi va unga o'ziga xos falsafiy chuqurlik baxsh etadi.

Shunday qilib, Lazgi nafaqat qadimiy marosim an'alarining davomchisi, balki insoniyatning tabiat bilan uyg'unlikda yashash haqidagi ibtidoiy tasavvurlarini bugungi kungacha yetkazib kelayotgan noyob madaniy hodisadir². Tarixan Xiva shahri Markaziy Osiyoning yirik ilm-fan va san'at markazlaridan biri sifatida tanilgan. Bu yerda me'morchilik, adabiyot, musiqa va tasviriy san'at bilan bir qatorda raqs san'ati ham yuksak darajada rivojlangan. Shahar nafaqat siyosiy markaz, balki boy madaniy muhitga ega maskan bo'lib, unda turli ijodkorlar, hofiz va sozandalar, raqqos va raqqosalar faoliyat yuritgan. Ayniqsa, Xiva xonligi davrida saroy madaniyati yuqori bosqichga ko'tarilib, san'atning barcha turlariga, jumladan, raqsga ham alohida e'tibor qaratilgan³. Saroy marosimlari, rasmiy qabul marosimlari, elchilarni kutib olish tantanalari, shuningdek, xalq sayillari, Navro'z bayramlari va to'y-tomoshalarda Lazgi keng ijro etilgan. Bu tadbirlarda Lazgi nafaqat ko'ngilochar vosita, balki tantananing estetik bezagi va ruhiy ko'tarinkiligini ta'minlovchi muhim unsur sifatida namoyon bo'lgan. Raqs orqali quvonch, tantanavorlik va mehmondo'stlik kayfiyati ifodalangan.

Saroy muhitida Lazgi asta-sekin professional ijrochilik darajasiga ko'tarildi. Maxsus tayyorgarlikka ega raqqos va raqqosalar shakllandi, harakatlar tizimi tartibga solindi va mukammallashdi. Improvisatsion unsurlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ijro texnikasi aniq qoidalar asosida rivojlantirildi. Harakatlarning aniqligi, ritmga mosligi va ifodaviyligi ustida alohida ishlangan⁴. Shuningdek, kostyum va musiqiy jo'rlik ham an'anaviy shaklga ega bo'ldi. Milliy liboslar – yorqin ranglar, zarbof matolar, nafis bezaklar bilan boyitilgan kiyimlar sahnaviy ko'rinishning ajralmas qismiga aylandi. Surnay, doira va nog'ora jo'rligida ijro etilgan musiqalar Lazgining dramatik va jo'shqin xarakterini yanada kuchaytirgan. Natijada, Lazgi Xiva saroy madaniyatining ramziga aylanish bilan birga, xalq orasida ham keng tarqalib, hududiy maktab sifatida shakllandi va takomillashdi.

Lazgi raqsining asosiy belgisi – qo'l, barmoq va yelka harakatlarining nihoyatda nozik, nafis va mazmunan boy plastikasidir. Ushbu plastika oddiy tashqi harakat emas, balki ichki ruhiy jarayonlarning badiiy ifodasidir. Harakatlar odatda kichik amplitudali, mayin va ichki tebranishdan boshlanadi. Dastlab barmoqlarning sezilar-sezilmas qimirlashi, kaftning yengil silkinishi yoki yelkaning nozik tebranishi kuzatiladi. So'ngra bu harakatlar bosqichma-bosqich kengayib, butun tana plastikasini qamrab oladi va jo'shqin, kuchli dinamikaga aylanadi. Mazkur kompozitsion dinamika ichki ruhiy holatning asta-sekin ochilishini, inson qalbida kechayotgan hissiyotlarning kuchayib borishini anglatadi. Go'yo raqqos ichki energiyani jamlab, uni harakat orqali tashqi olamga chiqaradi. Shu bois Lazgida har bir imo-ishora ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, tasodifiy harakat deyarli uchramaydi.

² Madrahimov O. Madrahimov Z. Moziyga bir nazar. Urganch.: 2009.

³ Xudayberganova M., Xolmo'minov M. Xorazm "Lazgi" raqsi: paydo bo'lish tarixi, shakllanish davri va taraqqiyot bosqichlari // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. 2022 №3 (2). – B. 587-591.

⁴ Matyoqubova G., Toxtasimov Sh., Hamroyeva H. "Xorazm Lazgi raqsi": tarixi va tavsifi. Toshkent.: 2022.

Qo'llarning titroq harakati Lazgining eng xarakterli va ramziy elementlaridan biridir. Bu titroq hayot uchquni, qalb jo'shqinligi, ichki ehtiros va yashash qudratini ifodalaydi. Barmoqlarning mayin tebranishi ba'zan olov alangasining lovullashini, ba'zan esa yurak urishining ritmini eslatadi. Ayniqsa, harakatning asta-sekin tezlashishi va kuchayishi hayotiy energiyaning ortishi, ruhiy uyg'onish va erkinlik sari intilishni anglatadi. Yelka va qo'l harakatlarining uyg'unligi esa Lazgining plastik boyligini yanada kuchaytiradi. Yelkaning yengil silkinishi butun tana ritmini belgilab beradi, qo'l va barmoqlar esa bu ritmni bezab, unga estetik noziklik baxsh etadi. Natijada raqs nafaqat ko'zga ko'rinadigan harakatlar majmui, balki ichki tuyg'ularning tashqi ifodasiga aylangan mukammal badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Lazgida yuz ifodasi alohida badiiy ahamiyat kasb etadi va u raqsning mazmuniy qatlamini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Raqs jarayonida ijrochining ko'z qarashi, qosh harakati, lablar ifodasi va hatto nafas olish ritmi ichki hissiyot bilan uyg'unlashib, yaxlit dramatik obrazni shakllantiradi. Agar tana plastikasini raqsning tashqi shakli deb hisoblasak, yuz ifodasi uning ichki ruhiy markazi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'z qarashi Lazgida ayniqsa katta semantik yuklamaga ega. Nigohning keskin yoki mayin yo'nalishi, uzoqqa qadalgan yoki pastga qaratilgan qarashlar orqali turli ruhiy holatlar – hayrat, quvonch, iztirob, g'urur yoki ilhom ifodalanadi. Qoshlarning yengil ko'tarilishi yoki chimirilishi esa bu hissiyotlarni yanada kuchaytiradi. Shu tariqa yuz mushaklarining nozik harakati raqsning umumiy kompozitsiyasiga mazmuniy chuqurlik bag'ishlaydi.

Tabassum ham Lazgining ajralmas ifoda vositasidir. U oddiy quvonch belgisi emas, balki ichki ishonch, hayotga muhabbat va ruhiy yuksalish ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim holatlarda esa tabassumning yo'qligi yoki jiddiy ifoda dramatik taranglikni kuchaytiradi va raqsning falsafiy mazmunini ochib beradi. Shu jihatdan, Lazgi nafaqat plastik harakatlar tizimi, balki mimik drammatizmga boy sahnaviy san'at turi hisoblanadi. Yuz ifodasi va tana harakatlarining uyg'unligi uni kuchli dramatik ifoda vositasiga aylantiradi. Natijada tomoshabin nafaqat raqqosning harakatlarini ko'radi, balki uning ichki ruhiy olamini ham his etadi.

Raqs odatda sekin, ichki sokinlik va mayin tebranish bilan boshlanadi. Dastlabki bosqichda harakatlar ixcham, nazoratli va ichki hissiyotga yo'naltirilgan bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ritm asta-sekin tezlashib, crescendo tamoyili asosida kuchayib boradi. Bu jarayon nafaqat musiqiy o'sish, balki dramatik rivojlanish vazifasini ham bajaradi. Har bir keyingi bosqich avvalgisidan energiyaliroq, kengroq va ifodaliroq ko'rinish oladi. Ushbu o'suvchi dinamika tomoshabinda emotsional ko'tarinkilik, hayajon va ruhiy jo'shqinlik uyg'otadi. Raqsning avj nuqtasiga yaqinlashgan sari harakatlarning shiddati, tana plastikasining kengligi va mimik ifodaning kuchi ortib boradi. Natijada sahnada energetik portlashga o'xshash dramatik cho'qqi yuzaga keladi. Bu esa tomoshabinni befarq qoldirmaydi, uni ruhiy jihatdan jarayonga sherik etadi.

Ritmik murakkablik Lazgining muhim xususiyatlaridan biridir. Unda tez-tez o'zgarib turadigan urg'ular, sinxron tebranishlar va murakkab takt tuzilmalari mavjud. Ijrochi musiqaning har bir zarbasini aniq his qilishi, harakat va ritmni mutanosib uyg'unlashtirishi lozim. Ayniqsa, tezlashgan bosqichda muvozanatni saqlash, qo'l-barmoq plastikasini aniqlik bilan bajarish va yuz ifodasini nazorat qilish katta mahorat talab etadi. Shu bois Lazgi ijrosi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki kuchli ichki intizom, ritm sezgisi va sahnaviy tajribani ham

talab qiladi. Crescendo asosidagi dinamik tuzilma va ritmik murakkablik uni texnik jihatdan mukammal, estetik jihatdan esa ta'sirchan san'at turiga aylantiradi.

Bugungi kunda Lazgi nafaqat milliy o'zlik ramzi sifatida O'zbekistonda tan olingan, balki xalqaro miqyosda ham e'tirofga sazovor bo'lgan. UNESCO tomonidan Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi uning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Shu sababli Lazgini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, uning tarixiy, estetik va semantik qatlamlarini tadqiq etish, an'anaviy shakllarini asrab-avaylash va sahnaviy hamda pedagogik amaliyotlarda rivojlantirish bugungi kunda o'zbek madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazish borasidagi eng muhim vazifalardan biridir⁵.

Lazgi nafaqat o'tgan asrlarning tarixiy timsoli, balki bugungi kunda ham xalqning ruhiy dunyosini boyituvchi, estetik didini shakllantiruvchi va milliy madaniyatning global maydondagi nufuzi sifatida xizmat qiluvchi jonli madaniy hodisadir. U orqali avlodlar o'z tarixini, san'atini va ma'naviy qadriyatlarini his qiladilar, shuningdek, o'zligiga bo'lgan hurmat va e'tiborni yanada mustahkamlashadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Djumabaeva M. The legend of lazgi and its history // Modern science and research. 2024 №3 (11). - P. 175-177.
2. Madrahimov O., Madrahimov Z. Moziyga bir nazar. Urganch.: 2009.
3. Matyoqubova G., Toxtasimov Sh., Hamroyeva H. "Xorazm Lazgi raqsi": tarixi va tavsifi. Toshkent.: 2022.
4. Matyoqubova G. "Lazgi" raqsi: tarixi va tadqiqi. Monografiya. -T.: 2023.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-j. -T.: 2003
6. Xudayberganova M., Xolmo'minov M. Xorazm "Lazgi" raqsi: paydo bo'lish tarixi, shakllanish davri va taraqqiyot bosqichlari // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. 2022 №3 (2). – B. 587-591.

⁵ Matyoqubova G. "Lazgi" raqsi: tarixi va tadqiqi. Monografiya. -T.: 2023.